O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI TA’LIM VA ILM-FAN VAZIRLIGI

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI



“O‘ZBEK TILINING GLOBAL MAQOMI VA NUFUZINI OSHIRISH ISTIQBOLLARI”

MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI







2026-yil
16-oktabr

ERKIN A’ZAM ASARLARIDA LISONIY SHAXS TIPLARI

TYPES OF LINGUISTIC PERSONALITY IN THE WORKS OF ERKIN AZAM

DOI: 10.52773/tsuull.conf.2026.10.16/CUDU2585

Marhabo Umurzoqova
filologiya fanlari doktori, dotsent
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat
o‘zbek tili va adabiyoti universiteti
E-pochta: umurzakovamarkhabo@gmail.com
ORCID ID : 0000-0001-5658-789X

Annotatsiya. *Lisoniy shaxsini belgilashda sintaktik vositalar muhim ahamiyat kasb etadi. Gapning sintaktik qurilishi, jumlalarning o‘rinlashuvi so‘zlovchining maqsadiga mos ravishda tanlanadi. Maqolada Erkin A’zam hikoyalarida lisoniy shaxsining voqelanishida ayrim sintaktik vositalarning o‘rni xususida so‘z yuritiladi.*

Kalit so‘zlar: *lisoniy shaxs, sintaktik takror, inversiya, sintaktik qolip, ijtimoiy omil*

Annotation. *Syntactic devices play an important role in defining a linguistic personality. The syntactic structure and construction of sentences are chosen in accordance with the speaker's intent. This article examines the role of certain syntactic devices in the realization of the linguistic personality in the short stories of Erkin A’zam.*

Keywords: *linguistic personality, syntactic repetition, inversion, syntactic model, social factor.*

Badiiy matnda lisoniy shaxsning namoyon bo‘lishida leksik vositalar bilan bir qatorda sintaktik qurilmalarning ham o‘rni bor. So‘zlovchi nutq tuzar ekan, kommunikativ aloqani amalga oshirish uchun turli sintaktik birliklardan foydalanadi. Ko‘zlangan maqsadning amalga oshishida, uning tinglovchi tomonidan idrok etilishida gap turlarining ham o‘ziga xos vazifalari bor. Nutqning ta’sirchan, emotsional bo‘lishi faqat uslubiy bo‘yoqqa ega bo‘lgan so‘zlar bilan belgilanmaydi. So‘zlovchining intelektual salohiyati, tildan foydalana olish mahorati, pragmatik maqsadi, emotsional holati, lisoniy shaxs sifatida namoyon bo‘lishi sintaktik birliklarning qo‘llanilishi, gap bo‘laklarining gap tarkibida joylashishi bilan ham belgilanadi. Sintaktik birliklar til egasining olamni anglashi,

idrok etishi va uni anglatishi uchun muhim vosita sifatida qo‘llaniladi. Nutq egasining sodda yoki murakkablashgan sodda gaplardan, ergashgan, bog‘lovchisiz yoki bog‘langan qo‘shma gaplardan foydalanishi kommunikativ-pragmatik imkoniyatlarini, ruhiy holatini, voqelikka munosabatini yuzaga chiqaradi.

Nutq egasining qanday sintaktik birliklardan ko‘proq foydalanishini, gap turining qaysisini tanlashini tahlil qilish qahramonning lisoniy shaxs sifatidagi yorqin jihatlarini aniqlashga, boshqalardan ajralib turadigan xususiyatlarini ko‘rsatishga, subyektiv bahoning yuzaga kelish sabablarini aniqlashga, tasvirni uning ichki olami bilan hamohang yoki zid ekanligini belgilashga yordam beradi. “Lisoniy shaxs olamning lingvistik manzarasini individual tarzda namoyon qiladi. Uning eng yorqin namunasi dunyoning obyektiv tasvirini ifodalaydigan, muallifning milliy, ijtimoiy, tarixiy omillarga asoslangan, o‘z dunyoqarashi va falsafiy pozitsiyalarini namoyon qiladigan asari hisoblanadi. Olamning lisoniy manzarasini berishda yozuvchi umumiy tushunchalarni o‘z dunyoqarashi asosida qabul qiladi, tabiiyki uni aks ettirish uchun badiiy tasvir vositalari va usullarini shunga moslab tanlaydi” [Ишегулова, 2016:8]. Muayyan ijodkor lisoniy shaxsining o‘ziga xosligini belgilashda so‘z qo‘llash bilan bog‘liq jihatlargagina e’tibor qaratish yetarli emas. Rus tilshunosligida lisoniy shaxsning shakllanishida sintaktik birliklarning o‘rni masalasiga ham e’tibor qaratilgan. O.V.Shatalova lisoniy shaxsning sintaktik xususiyatlariga e’tibor qaratar ekan, badiiy asardagi sintaktik birliklarning muayyan matn sharoitlarida imkoniyati yuqori bo‘lishini, bu adabiy asarning badiiy va estetik asosiga samarali ta’sir qilishini, matnni strukturaviy jihatdan tartibga solishini ta’kidlaydi [Шаталова, 2019:14]. Tadqiqotchi sintaktik qurilmalarning funksionalligini baholashda zamonaviy tilshunoslik talablariga mos keladigan yondahuv sifatida integral yondashuvni ma’qul ko‘radi va bu yondashuv quyidagi vazifalarni: “ona tilida so‘zlashuvchilarning lingvistik kompetensiyasini tavsiflovchi tarkibiy elementlarni aniqlash; gapning kommunikativ-funksional turi va nutqda ma’lum bir bo‘lakni aktuallashtirish natijasida qo‘yilgan maqsad o‘rtasidagi qonuniyatni aniqlash imkonini beradi”, – deb hisoblaydi.[Шаталова, 2019:17].

Tilshunoslikda muayyan yozuvchining uslubi, tildan foydalanish mahorati tadqiqiga bag‘ishlangan ishlar talaygina. Ko‘p hollarda sintaktik vositalar tahlili lingvopoetik aspektda amalga oshirilgan bo‘lib, tadqiqotchilar sintaktik vositalarning badiiy matn ta’sirchanligini ta’minlashdagi o‘rni masalasiga e’tibor qaratganlar. Sintaktik birliklar badiiylikni ta’minlash bilan birga muallif lisoniy

shaxsining voqelanishida, uni boshqa mualliflardan ajralib turishini ko‘rsatuvchi indikator sifatida ham ahamiyatlidir. o‘zbek tilshunosligida badiiy matnning sotsiopragmatik tadqiqini amalga oshirgan X.Yo‘ldosheva badiiy asarda adib, ya’ni yozuvchi, shoir, dramaturg adresant, ya’ni matn yaratuvchi rolini bajarishini, matn yaratishda bir qancha vazifalarni bajarishi, turli ijtimoiy maqomlarga ega bo‘lishini qayd etadi [Yo‘ldosheva, 2023: 40].

Lisoniy shaxsning voqelanishida turli ijtimoiy omillar, xususan, gender [Umurzaqova], yosh [Umurzaqova], muallifning temperamenti ham muhim ahamiyatga ega.

Erkin A’zam asarlari tilshunoslikda ko‘plab tadqiqotlar uchun obyekt bo‘lgan bo‘lsa-da, uning asarlaridagi lisoniy shaxs tiplarini ajratish, milliy-madaniy belgilarni tashuvchi sifatida baholash muhim vazifalardan biridir.

Erkin A’zamning “Fideldan salom” hikoyasi misolida sintaktik birliklarning lisoniy shaxsni shakllantirishdagi o‘rni xususida so‘z yuritishga harakat qilamiz. Hikoya *Xabar keldiki, bobomiz chorlayotganmish* ergashgan qo‘shma gap bilan boshlanadi. Ikkinchi gap parsellyativli qurilma bo‘lib, yozuvchi umumlashtiruvchi so‘z va uyushiq bo‘laklardan iborat bo‘lgan gapni alohida gap sifatida shakllantirgan. Ilk jumlalardanoq so‘zlovchining asosiy maqsadi bobosi va u chorlayotgan odamlarga qaratilayotgani ma’lum bo‘ladi.

Parvona bo‘lib boshida o‘tirgan mehribon kenjasining (hammani xabarlagan shu) aytishicha, “Dunyosidan zerikib ketdim, qizim! – deganmish yota-yota. – Yetmishdan keyingisining qizig‘i yo‘q ekan o‘zi. (Shu gap farzandga andak botibdi, “Oyingdan keyingi umrning” deyilishini kutgan-da u. Keltirilgan matndan so‘zlovchi shaxsning nabira maqomida ekanligini bir qarashda anglash qiyin. Hikoyaning ilk jumlasidan hikoyachi uchunchi shaxs sifatida so‘z yuritadi. *Bobomiz, bobo, u kishi, chol* kabi birliklar hikoyachi-nabira nutqida qo‘llanilgan bo‘lib, begona kishi haqida so‘z yuritayotgan shaxs sifatida namoyon bo‘ladi. Ushbu hikoyada quyidagi lisoniy shaxs tiplarini ajaratish mumkin:

1. Qariya lisoniy shaxsi. Chapani (*Yuzga kirmagan – nomard!*”), maqtovga suyagi yo‘q *(Anuv Kubaning podshosi bor-ku, soqolli, zo‘r, o‘sha bilan bir kunda (“bir yilda”si qolib) tug‘ilganmiz! – deya shishinib ketardi. – Bizga salom ham yuborib turadi. Ishonmasangiz, ana, Baxtidan so‘rang”)*.

2. Hikoyachi-nabira lisoniy shaxsi. Boboning soddaligi, tantiligi, maqtovga suyagi yo‘qligi, turmush masalalarida ayollar bilan hisoblashmasligini yengil kulgi, biroz kinoya bilan yetkazuvchi (*Bobomiz esa xiyla errayim: umr masalasiga xotin-xalajni aralashtirgisi kelmaydi; Bir safar yo‘qlab borsak, ozib-*

to‘zib qoq suyakka aylangan bemorimiz boshyalang, yoqasiz yengil oq ko‘ylakda xuddi anovi jonsaraki jahon Mahatma Gandiga o‘xshab o‘tirgan ekan).

Hikoyada qo‘llanilgan sintaktik birliklarning lisoniy shaxsni shakllantirishdagi vazifasini quyidagi jadvalda ko‘rishimiz mumkin:

T/r	Sintaktik birlik turi	Asosiy xususiyati va vazifasi
1	Sodda gaplar	Hikoyada voqealarni bayon qilish va dialogik nutqda yetakchilik qiladi (yoyiq va yig‘iq, darak hamda so‘roq gap turlari uchraydi).
2	Qo‘shma gaplar	Voqealar rivojini izohlash, sabab-oqibat va payt munosabatlarini bildirish uchun xizmat qiladi (bog‘langan va ergashgan qo‘shma gaplar qo‘llanilgan).
3	Inversiyaga uchragan gaplar	So‘z tartibining o‘zgarishi (kesimning oldinga chiqishi yoki ikkinchi darajali bo‘laklarning o‘rin almashishi) emotsional bo‘yoqdorlikni oshiradi. Jonli so‘zlashuv nutqini berishda asosiy vosita sifatida ishtirok etadi.
4	Kiritma qurilmalar	Qahramonning voqea-hodisaga munosabati, qo‘shimcha izohlar va subyektiv bahosini ifodalash uchun ishlatilgan. Bunday kiritma qurilmalarni Erkin A’zamning o‘ziga xos uslubi, muallif lisoniy shaxsining asosiy belgisi sifatida ko‘rsatish mumkin.

T/r	Sintaktik birlik turi	Asosiy xususiyati va vazifasi
5	**Parsellyativ qurilmalar**	Fikrni kuchaytirish, ta’sirchanlikni oshirish, hikoyadagi qahramon nutqini jonli so‘zlashuv nutqiga yaqinlashtirish, jozibadorlikni oshirish uchun xizmat qiladi.

Nutqning sintaktik qurilishi tadqiq qilish sotsiolingvistika, psixolingvistika, pragmalingvistika kabi sohalarda lisoniy shaxsning baho munosabatini hamda o‘ziga xos nutq qurish modelini aniqlashda muhim ko‘rsatkich sanaladi. Muayyan sintaktik birliklarning lisoniy shaxsni belgilashdagi o‘rni masalasi uch asosiy tamoyilga ko‘ra belgilanadi: ishlatilish chastotasi, funksional-kommunikativ shartliligi, semantik-pragmatik valentligi [Шаталова, 2012:9]. Biroq shuni ham ta’kidlash kerakki, tilning sintaiktik sathi boshqa til sathlariga qaraganda kam o‘zgarishga uchraydi. Tildan foydalanuvchilar yillar davomida shakllantirgan sintaktik qoliplarni buzish, yangisini yaratish yoki sintaktik qoliplarga o‘zgartirish kiritishi mumkin emas. Yozuvchilarning nutqida sintaiktik birliklarning namoyon bo‘lishi, muayyan gap qoliplaridan foydalanishi aksar hollarda ijtimoiy omillar, xususan, ularning hududiy mansubligi bilan ham bog‘liq bo‘ladi.

Xulosa qilib aytganda, kichik bir hikoyada o‘ziga xos lisoniy shaxs tiplarini berish yozuvchidan katta mahorat talab qiladi. Erkin A’zamning mazkur hikoyasidan so‘zini bermaydigan, mard, tanti o‘zbek lisoniy shaxsini tanib olish mumkin.

ADABIYOTLAR:

1. Ишегулова А. М. Языковая личность писателя Яныбая Хамматова (на материале художественных текстов). Автореф. дисс. канд. филол. наук. – Уфа. 2016. – 23с.

2. Yo‘ldosheva X. Badiiy matnning sotsiopragmatik tadqiqi. Filol. fan. d-ri (DSc) diss. – Qarshi. 2023. – 227 b

3. Шаталова О.В. Синтаксическая характеристика языковой личности. Автореф. дисс. д-ра филол. наук. – Елец, 2012. – 51 с.

4. Umurzaqova M. Lisoniy shaxsni belgilashning gender omili. https://uzlc.tsuull.uz/index.php/uzlangcult/article/view/124

5.Umurzakova M. https://www.researchgate.net/publication/377199753_LISONIY_SHAXS_VA_UNING_SHAKLLANISHIDA_IJTIMOIY_OMILNING_o‘RNI

6. Umurzakova M. https://www.researchgate.net/publication/377588564_Personaj_lisoniy_shaxsida_yosh_xususiyatlarining_namoyon_bo‘lishi

MUNDARIJA

KIRISH SO‘ZI		
Sirojiddinov Sh.S.	O‘zbek tilining xalqaro nufuzini oshirish zarurati	**6**
I. O‘ZBEK TILINING JAHON TILLARI TIZIMIDAGI O‘RNI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI		
Xolmanova Z.	O‘zbek tilining jahon tillari tizimidagi mavqeyini belgilashda lingvodidaktikaning o‘rni	**9**
Abdushukurov B.	Alisher Navoiy asarlaridagi qadimgi turkiy fe’llar semantikasi	**16**
Xudoyberdiyev J.	Mahmud Koshg‘ariy – singarmonizmning birinchi nazariyotchisi va ovrupolik olimlarning singarmonizm haqidagi xato qarashlari	**30**
Abdurahmanova M.	Alisher Navoiy merosi psixolingvistik talqinda	**45**
Xolmurodova M.	“Nasoyim ul-muhabbat” asaridagi tabobatga doir ayrim arabcha so‘zlar	**51**
O‘razova I.	Ot frazemalarning grammatik funksiyasi (Alisher Navoiy “Xamsa”sidagi frazemalar misolida)	**56**
Maxkamova D.	O‘zbek tili axborot-kommunikatsiya texnologiyalari	**60**

	terminologiyasi taraqqiyoti va tadqiqi	
Oripova M.	Sinestezik metaforalarda sezgilar interperatsiyasi	**66**
Muratova N.	Tilak va tabrik nutqiy aktlarida kommunikativ taktikaning tanlanish xususiyatlari	**72**
Abdullayeva G.	Folklor diskursida o‘xshatishlarning semantik-struktur va kognitiv tahlili	**78**
Xayrullayeva R.	Kichraytirish-erkalash shakllarining pragmatik ifodalanishi	**86**
Jumaniyozova Ch.	Sifat so‘z turkumida obyektiv va subyektiv belgilarning ifodalanishi	**90**
Abduvaliyeva K.	“Shajarayi turk” asaridagi ba’zi urug‘ nomlarining etnotoponim sifatidagi tahlili	**95**
Mullaboyeva Sh.	O‘zbek tilida o‘xshatishlar asosida estetik bahoning ifodalanishi	**107**
Mamadoliyeva M.	Graduallik kategoriyasining lingvistik tabiati va uning turdosh hodisalar bilan munosabati (Xayriddin Sultonov va Iqbol Mirzo asarlari misolida)	**115**
Mamarasulova M.	O‘zbek tili fonosemantik tahlilining fonologik asoslari	**130**
Siddiqova N.	O‘zbek xalq maqollaridagi eskirgan leksika: tarkibi,	**132**

	variantlanishi va lingvopoetik vazifalari	
Yusupova A.	Konseptlarning metaforik ifodalanishi va tahlil shakllari	**144**
O‘ralova N.	O‘zbek tilshunosligida parsellyatsiya hodisasi, uning sintaktik tavsifi va ega-kesim munosabatidagi o‘rni	**150**
Maxmudova M.	Kelishik kategoriyasining o‘rganilish tarixiga doir ayrim mulohazalar	**158**
Nurmatova S.	O‘zbek tilida rang ifodalovchi birliklarning lingvokognitiv strukturasi va konseptualizatsiya masalalari	**168**
Keldiyorova Z.	O‘zbek tilidagi shikoyat matnlarida nutqiy aktlarning ifodalanishi	**174**
Aliqulova Z.	Toponimlarning axborotni saqlash va uzatish xususiyatlari	**178**
Jurayeva Sh.	Hurmat kategoriyasining lisoniy birliklar bilan ifodalanishi	**183**
Karimova U.	Kultegin bitiktoshidagi xarakter-xususiyat bildiruvchi sifatlar tahlili	**188**
II. O‘ZBEK TILINI XALQARO MAYDONDA TARG‘IB QILISH STRATEGIYALARI		
Shamsiyeva M.	Peyzaj matnlari orqali turizmni rivojlantirish istiqbollari	**194**

Jo‘rayeva M.	Matnni tushunishda asar sarlavhasining ahamiyati	**201**
III. GLOBALLASHUV SHAROITIDA MILLIY TIL VA MADANIYATNI SAQLASH MASALALARI		
Ashirboyev S.	Adstrat sharoitidagi turkiy shevalarning o‘zaro ta’siri masalasi	**205**
Farhad Rahimi	Yakşı/ ĥoş, yap/ lap, ķop/ köp/ ĥob, appaķ/ pāk kelimeleri üzerine On the words yakşı/ ĥoş, yap/ lap, ķop/ köp/ ĥob, appaķ/ pāk	**210**
Xakimova M.	O‘zbek tilidagi metaforik konseptuallashtirishning milliy xususiyatlari	**232**
Abbozov O.	So‘x toponimlarining lingvomadaniy xususiyatlari	**238**
Komilova G.	O‘zbek tilida qadriyatlar tipologiyasining lingvistik verbalizatsiyasi	**245**
Xomidova M.	Zamonaviy o‘zbek badiiy matnlarida ertak elementlarining intertekstual xususiyatlari	**253**
Həsənzadə Səmra	Qrammatik metaforun türk dillərində reallaşması (özbək dilinin materiallari əsasinda)	**261**
Davronova Z.	Antroponimik freymlarda registrdan og‘ish fenomini (Cho‘lponning “Kecha va kunduz” romani misolida)	**272**

Tursinbayeva Sh.	Badiiy matnda onomastik birliklarning lingvomadaniy imkoniyatlari	**276**
Bekmuradova I.	O‘zbek tilidagi ijobiy fe’l-atvor leksemalarining semantik tasnifi	**283**
Imomova I.	Fitratning dramatik asarlarida maqollarning qo‘llanilishi va funksional-semantik xususiyatlari	**291**
Turgunboeva D.	Globallashuv sharoitida o‘zbek va ingliz lingvomadaniyatida miqdoriy me’yor	**297**
Amrullayeva M.	O‘zbek tilida inson xarakterini ifodalovchi frazemalarning semantik mikromaydonlari	**305**
Abdug‘afurova A.	Lingvomadaniy kodlarning poetik faollashuvi: Faxriyor va Ulug‘bek Hamdam she’riyati qiyosida	**312**
Muzaffarova Z.	Badiiy matnda qo‘llangan metaftonimik birliklarning kognitiv xususiyatlari	**322**
Jumayeva M.	Son komponentli lug‘aviy birliklarning lingvokulturologik tahlili	**327**
Xolmo‘minova H.	Frazemalarning lingvomadaniy tahlili	**333**
IV. O‘ZBEK TILINI O‘QITISHNING ZAMONAVIY METODLARI VA XORIJIY TAJRIBA		

Xusanova N.	Raqamli ta’lim muhitida o‘qish savodxonligi transformatsiyasi vositasida boshlang‘ich o‘quvchilarning kreativligini shakllantirish	**337**
Mamirova X.	Bolalarda ko‘p ma’noli so‘zlarni o‘zlashtirishning psixolingvistik mexanizmlari va til ta’limiga ta’siri	**344**
Arolova N.	Maktabgacha yoshdagi o‘zbek bolalari nutqida sintaktik tejamkorlik	**351**
Mirnosirova D.	Nutqiy ijod haqidagi nazariy qarashlar talqini	**356**
Nurboboyeva R.	Erta yoshdagi bolalar ta’limida adabiyotning tutgan o‘rni	**363**
Keldiboyeva M.	O‘zbek tili omonimlarini o‘zlashtirishda kontekst va assotsiatsiyaning psixolingvistik roli	**369**
V. TARJIMA VA LINGVOMADANIY ALOQALAR: XALQARO HAMKORLIKNING MUHIM OMILI SIFATIDA		
Mustafa Said Arslan	Türkiye türkçesi ve özbek türkçesi arasindaki yakinliğin öğretimdeki yansimalari: özbek türkçesi öğretiminde karşilaşilan sorunlar ve öneriler	**378**
Kalanova D.	O‘.Hoshimov “Dunyoning ishlari” asarining koreyscha tarjimasida milliy-madaniy realiyalarning berilishi	**389**

Muhammadiyeva D.	Ko‘p tilli parallel korpusning tarjima birliklarini qiyosiy o‘rganishdagi imkoniyatlari	**400**
Abbasova Ş.	Özbek Yazı Dili ve Azerbaycan Türkçesi'nin Ağızlarında Akrabalık Terimleri	**411**
Qarshiyev K.	Badiiy tarjimaning adabiy-estetik tafakkur evolyutsiyasiga ta’siri (Jamol Kamolning tarjimonlik faoliyati misolida)	**418**
Rahimova Z.	Parallel korpuslarning tarjimashunoslik va qiyosiy tilshunoslikdagi ilmiy ahamiyati	**428**
Bozorova S.	Rus tilidagi ayrim gippologik birliklar tadqiqiga doir	**433**
Axmedova N.	O‘zbek va ingliz tillarida ruhiy holat birliklarining semantik farqlari va kontekstual tarjimasi	**442**
Davlatova R.	Sun’iy intellekt asrida inson nutqi, tilni idrok etish va psixolingvistik jarayonlar	**448**
Turdiyeva R.	Ingliz, qoraqalpoq va o‘zbek tillaridagi maqollarda zoonimlarning lingvokognitiv tahlili (“bo‘ri” misolida)	**462**
Ataniyazova S.	O‘zbek va ingliz tillarida mayl, zamon va modallikning muloqot xulqidagi funksional-uslubiy imkoniyatlari	**466**
Sayfiyeva K.	O‘zbek va ingliz fitonim komponentli maqollarida inson	**472**

	konseptining kognitiv metaforik modellari	
Tillayeva O.	O‘zbek va turk maqollarida erkak konseptining semantik maydoni	**485**
Musurmankova Sh., **Abdullayeva D.**	“Ikki eshik orasi” romanidagi murojaat birliklarining lingvomadaniy xususiyatlari va tarjima muammolari	**495**
Abdullayeva M.	Ingliz va o‘zbek maqollarida nutqiy antonimiyaning lingvokognitiv xususiyatlari	**502**
VI. AXBOROT TEXNOLOGIYALARI VA RAQAMLI MUHITDA O‘ZBEK TILINING RIVOJI		
Abjalova M.	O‘zbek tili multikorpusida aksentologik korpus va uning ahamiyati	**513**
Elova D.	O‘zbek normativ-huquqiy matnlarini lingvo-mantiqiy annotatsiyalash mezonlari	**524**
Kasimova Z.	O‘zbek tili iboralar korpusini yaratishning lingvistik va kompyuter asoslari	**534**
Nurullayeva O.	Barqaror birikmalar resurslari va parallel korpus uchun baza tuzish mezonlari	**542**
Musulmonova K.	Lingvistik ekspertologiyada matn identifikatsiyasi bo’yicha ekspert xulosalarini shakllantirishning nazariy va amaliy asoslari	**550**

Umarova Sh.	Kollokatsiyalarni korpus asosida aniqlashning nazariy va metodologik asoslari	**556**
Akramdjanova M.	Parallel korpusning madaniyatlararo kommunikatsiyadagi o‘rni	**564**
Buronova R.	Raqamli muhitda o‘zbek tilidagi neologizmlarning shakllanishi	**570**
Shodmonaliyeva Y.	Sentiment tahlilda tasdiq-inkor emojlarining diskursiv va pragmatik funksiyalari	**576**
Rayimjonova M.	Rauf Parfi she’riyatining leksik-statistik xususiyatlari	**591**
VII. XALQARO TA’LIM DASTURLARI VA O‘ZBEK TILI: IMKONIYAT VA ISTIQBOLLAR		
Mirzəli Məleykə	Azərbaycanda özbək dilinin tədrisi: təcrübə və perspektivlər (bakı slavyan universitetinin timsalında)	**595**
Iskandarova G.	O‘zbek tilini ikkinchi til sifatida o‘rganishda so‘z ma’nolarini o‘zlashtirish	**603**
VIII. O‘ZBEK TILI VA DIPLOMATIYA: XALQARO MUNOSABATLARDA TILNING O‘RNI		
Темирова Б., **Темирова М.**	Кыргыз, өзбек тилдери жана алардын адабий-маданий байланыштардагы ролу	**610**

Nazarov Q.	O‘zbek diplomatik diskursida metaforalarning kommunikativ-pragmatik xususiyatlari	**620**
IX. ILMIY TADQIQOTLAR VA LINGVISTIKADA XALQARO HAMKORLIK MASALALARI		
Berdak Yusuf	O‘zbek tilining shakllanish jarayoni va eski o‘zbek tili terminlari	**626**
Qurbonova M.	Xarizmatik nutq haqidagi nazariy qarashlar talqini	**632**
Umurzoqova M.	Erkin A’zam asarlarida lisoniy shaxs tiplari	**640**
Mirzaali Malika	O‘zbek tılının mavsumıy marosımlar leksıkasıda turkıy areal mavqeyı	**646**
Məmmədova A.	Xarəzm Türkcəsində Və Müasir Özbək Dilində Qohumluq Terminlərində Cins Kateqoriyasinin İfadəsi	**661**
Tuxtasinova M.	L.Z.Budagov lug‘atidagi umumturkiy leksik fond: “tur.” pometali leksemalarning tarixiy-qiyosiy tahlili	**670**
Abdullayeva S.	So‘z yasalishını qıyosıy-tıpologık tadqıq etısh metodologıyası va tahlıl mezonları	**681**
Xasanova G.	Kinesikaning lingvistik tadqiqi: shakllanish tarixi va kommunikativ funksiyalari	**688**

Rajabov N.	O‘zbek tilida ng fonemasining talaffuzi, imlosi va tarixiy taraqqiyoti	**695**
Mirzayeva G.	O‘zbek tilida tovush o‘zgarishlarining neyrolingvistik asoslari	**699**
Arislanova M.	She’riy matnning konseptual tizimi va lingvokognitiv xususiyatlari (Erkin Vohidov ijodi misolida)	**706**
Muhammadiyeva M.	“Shum Bola” qissasidagi ba’zi polisemantik leksemalar tahlili	**717**
Abdullayev G‘.	Fitrat she’riyatidagi turkiy so‘zlarning emotsional-ekspressiv xususiyatlari	**722**
Tursunova S.	Ironiyada implikatura fenomeni va yashirin ma’no mexanizmlari	**726**
Turobova N.	Badiiy diskursda morfologik vositalarning pragmatik xususiyatlari	**737**
Utegenova O‘.	O‘zbek tilida tasviriy ifodalarning badiiy matnda qo‘llanilishi	**744**
Komilova G.	Tarixiy-badiiy matnlar korpuslarini yaratish zarurati va ularni semantik modellashtirish masalalari	**749**
Haydaraliyeva Sh., Mo‘minova M.	O‘zbek tili leksikasining taraqqiyot tamoyillari va semema tushunchasi	**759**

Axmedova M.	Diskurs tushunchasining lingvistik talqini: nazariy yondashuv va ilmiy qarashlar	**768**
Komilova Sh.	Lingvokultrologiyada evfemizm va milliy mentalitet: ayollar nutqi misolida nazariy talqinlar	**774**
Suyunova D.	“Boburnoma” dagi leksik qatlamlarning “Boburiynoma”da badiiy qayta faollashuvi: leksik-semantik va funksional-uslubiy tahlil	**780**
Maqsudaliyeva Y.	Lingvistik ekspertiza va lingvokriminalistik tahlil: nazariya va amaliyot	**786**
Abdurasulova D.	O‘zbek qizlari nutqidagi neonim va slenglarning pragmalingvistik tadqiqi	**792**
Majidova M.	Tibbiy soha rahbarlari kinesik nutqining lingvosomatik tadqiqi	**797**
Abdullayeva I.	Gender qadriyatlarning aksiolingvistik tahlili	**802**
X. O‘ZBEK TILINING OMMAVIY AXBOROT VOSITALARI VA MEDIA MAKONIDAGI O‘RNI		
Saydaliyeva M.	Kinodiskurs multimediali muloqot tizimi sifatida	**809**
Otaxonova S.	Mediamatnlarda antroponimlarning pragmatik imkoniyatlari	**813**